



BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2021- YIL YANVAR-AVGUST
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: 65-220-83-06

Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11826,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 99,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (95,0 %)ni tashkil etdi.



B–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elekt, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 0,6 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 0,8% ga hamda suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning – 5,0 % ga pasayishi kuzatildi.


**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

mlrd.
soʻm




FHI
% da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 190,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da

2020- y
% da




2021- y
% da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Oltingugurt



Shagʻal




Qazib olish
xizmatlari



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oltinugurt , t.	772,0	774,0	2,0
Shagʻal , t.	35711,0	14000,0	-21711,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻilash xizmatlari, mln. soʻm.	111806,5	105520,1	-6286,4

Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-avgust oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11237,2 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,0 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-august oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,9 % (1,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 54,0 % (59,4 %) va quyi texnologiyalisi – 44,0 % (38,7 %) ni tashkil etdi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 41,5 % (2020- yil yanvar- august oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 75,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,1 % (2020- yil yanvar-august oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 112,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,3 % (2020- yil yanvar-august oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 111,5 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 6,4 % (2020- yil yanvar-august oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 127,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 571,8 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 3,3 % ga o'sgan), 15,6 ming tonna kalava ip (10,4 %), 1303,6 ming litr aroq mahsulotlari (48,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-august	2021- yil yanvar-august	Farqi +/-
Mazut, ming t.	67,2	52,2	-15,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	8167,7	7397,6	-770,1
Paxta,tolasi, t.	57637,6	51237,0	-6400,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	61732,0	57096,4	-4635,6
Quyish uchun tayyor beton,t.	21413,0	4822,1	-16590,9
Avtomobil benzini,ming t.	553,6	571,8	18,2
Paxta chigiti, t.	88925,8	74714,0	-14211,8
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	14243,8	19893,5	5649,7
Dizel yoqilg'isi, ming t.	402,0	257,9	-144,1

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish
(2021- yil yanvar-august)




To'qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-august)

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-august oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,0% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 120,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-august oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,1 % ni, fizik hajm indeksi 12,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2609,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-august)

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-august oylarida oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,4 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2021- yilning yanvar-august oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2169,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-august)


Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-august oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-august oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning sanoat tarkibidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 27,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 758,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-august)



Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-august oylarida ushbu yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarishning ulushi 2,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 95,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-august oylari yakunlariga ko'ra, shu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 38,7 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 262,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-avgust oylarida

mlrd.
so'm





FHI
% da

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 297,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da

2020- y.




2021- y.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4,3	4,9	0,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	510,6	529,3	18,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 101,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar- avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	5942,4	12070,5	6128,1
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	337,7	324,6	13,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 99,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5103,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 23,4 % ga oshdi, uning jami sanoatdagi ulushi 43,2 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,4 % (2020- yil yanvar-august oylarida 2,0 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 20,1 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 19,5% ni, G'ijduvon tumani 11,5 % ni, Jondor tumani 7,9 % ni, Kogon tumani 6,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (123,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon (171,4 %), Olot (155,5 %), Peshku (152,5 %) va Shofirkon (150,5 %) hamda Romitan (136,9 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-august oylarida**

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	5103,1	100,0	123,4				
Buxoro viloyati							
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	154,8	3,0	155,5		187,4	3,7	152,5
Olot				Peshku			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	240,0	4,7	103,0		256,9	5,0	136,9
Buxoro				Romitan			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	222,8	4,4	110,9		404,8	7,9	136,4
Vobkent				Jondor			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	585,1	11,5	115,7		266,8	5,2	150,5
G'ijduvon				Shofirkon			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	345,2	6,8	171,4		993,7	19,5	134,5
Kogon				Buxoro sh.			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	209,0	4,1	104,5		209,8	4,1	109,2
Qorako'l				Kogon sh.			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>				
	1026,8	20,1	104,7				
Qorovulbozor							

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 31,0 % ni, shuningdek Buxoro shahri 19,4 % ni, G'ijduvon tumani 11,1 % ni hamda Kogon tumani 6,0 %, Romitan tumani 5,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Shofirkon (191,3 %), Peshku (161,6 %), Romitan (154,9 %) va Olot (153,3 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-august oylarida**

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	3248,1	100,0	125,9
Buxoro viloyati			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	91,0	2,8	153,3
Olot			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	84,7	2,6	161,6
Peshku			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	119,1	3,7	103,6
Buxoro			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	176,5	5,4	154,9
Romitan			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	160,7	4,9	126,2
Vobkent			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	138,2	4,3	147,3
Jondor			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	361,6	11,1	127,2
G'ijduvon			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	134,8	4,1	191,3
Shofirkon			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	193,9	6,0	133,3
Kogon			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	630,7	19,4	150,1
Buxoro sh.			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	63,9	2,0	95,6
Qorako'l			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	87,3	2,7	115,6
Kogon sh.			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	1005,7	31,0	105,3
Qorovulbozor			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 19,6 % ni, shuningdek, Jondor tumani 14,4 % ni, G'ijduvon tumani 12,1 % ni, Kogon tumani 8,2 %, Qorako'l tumani 7,8 % tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Kogon tumanida (2,7 m.), Olot tumanida (158,7 %) hamda Peshku tumanida (145,8 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-august oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1855,0	100,0	119,1				
Buxoro viloyati							
	63,8	3,4	158,7		102,7	5,5	145,8
Olot				Peshku			
	120,9	6,5	102,4		80,4	4,3	109,1
Buxoro				Romitan			
	62,1	3,4	84,4		266,6	14,4	131,4
Vobkent				Jondor			
	223,5	12,1	101,0		132,0	7,1	123,5
G'ijduvon				Shofirkon			
	151,3	8,2	2,7 m.		363,0	19,6	114,0
Kogon				Buxoro sh.			
	145,1	7,8	108,9		122,5	6,6	105,1
Qorako'l				Kogon sh.			
	21,1	1,1	82,5				
Qorovulbozor							

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yilning yanvar-august oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1137,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 9,6 % ni tashkil etdi.

Buxoro viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarishi hajmlari
 2021- yil yanvar-avgust oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	11826,1	100,0	99,4
Buxoro viloyati *			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	349,2	3,0	108,2
Olot			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	276,6	2,3	108,4
Peshku			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	257,0	2,2	99,2
Buxoro			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	688,0	5,8	102,6
Romitan			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	251,7	2,1	102,2
Vobkent			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	538,2	4,5	110,0
Jondor			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	860,5	7,3	102,8
G'ijduvon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	388,3	3,3	110,8
Shofirkon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	674,2	5,7	117,6
Kogon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1597,7	13,5	106,0
Buxoro sh.			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	362,9	3,1	102,2
Qorako'l			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	507,0	4,3	104,2
Kogon sh.			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	5074,8	42,9	95,4
Qorovulbozor			

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

**Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kogon tumanida (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 117,6 %), Shofirkon tumanida (110,8 %), Jondor (110,0 %) va Peshku (108,4 %) tumanida sezilarli darajada oshdi.

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan pasayish omili bolib Qorovulbozor (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 95,4 %) tumanida ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi kuzatildi.

Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 42,9 % i), Buxoro shahri (13,5 %), G'ijduvon tumani (7,3 %), Romitan tumani (5,8 %), Kogon tumani (5,7 %) hamda Jondor tumani (4,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Vobkent (2,1 %) hamda Buxoro (2,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (272471,0 ming so'm), Kogon shahri (8 214,9 ming so'm) va Kogon tumani (8 455,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6 056,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 613,3 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 55 131,3 ming so'mni, Kogon tumanida – 4 330,2 ming so'mni, Buxoro shahrida – 3 525,0 ming so'mni, Kogon shahrida 3 398,8 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yil yanvar-avgust, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	6056,0	2613,3
Buxoro viloyati		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3480,7	1543,0		2213,9	1499,8
Olot			Peshku		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1516,0	1415,5		4768,2	1780,3
Buxoro			Romitan		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1775,5	1571,5		3040,6	2287,0
Vobkent			Jondor		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2793,8	1899,7		2164,2	1487,0
G'ijduvon			Shofirkon		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	8455,7	4330,2		5667,7	3525,0
Kogon			Buxoro sh.		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2192,7	1262,9		8214,9	3398,8
Qorako'l			Kogon sh.		
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari			
	272471,0	55131,3			
Qorovulbozor					

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yil yanvar-avgust, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4549,1mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,5 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Jondor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Vobkent (99,8 %), Buxoro (99,6 %), Kogon (98,4 %), hamda Shofirkon (85,0 %) tumanlarida kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,6 %) va Kogon shahri (39,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2020- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4826 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1313 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,2 % i) Buxoro shahriga, 603 tasi (12,5 % i) G'ijduvon tumaniga, 380 tasi (7,9 % i) Buxoro tumaniga, 371 tasi (7,7 % i) Kogon tumaniga, 341 tasi (7,1 % i) Jondor tumaniga, 331 tasi (6,9 % i) Romitan tumaniga, 306 tasi (6,3 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 795 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 149 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 18,7 %) Buxoro shahrida, 107 tasi (13,5 %) G'ijduvon tumanida, 73 tasi (9,2 %) Shofirkon tumanida, 67 tasi (8,4 %) Buxoro tumanida, 65 tasi (8,2 %) Romitan tumanida tashkil etildi.